

“Milliy qadriyatlar sayli” adabiy-ma’rifiy haftaligi bo‘lib o‘tmoqda

// 24.04.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/milliy-qadriyatlar-sayli-adabiy-ma-rifiy-haftaligi-bo-lib-o->



Ayni kunlarda poytaxtimizda “Milliy qadriyatlar sayli” adabiy-ma’rifiy haftaligi bo‘lib o‘tmoqda.

Adiblar xiyobonida haftalik doirasida ko‘plab ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Tadbirlarda talabalar tomonidan folklor xalq og‘zaki ijodidan chiqishlar, adiblar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan sahna ko‘rinishlari namoyish etilmoqda.

Shuningdek, she’rxonlik va g‘azalxonlik kechalari, milliy urf-odatlarimiz, kuy-qo‘shiq va qadriyatlarimizni o‘zida tarannum etgan chiqishlar, ko‘rgazmalar bo‘lib o‘tmoqda.

Shu bilan birga, milliy sport musobaqalari ham o‘tkazilmoqda.







"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

